



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>Sanjar Baxronkulovich Boboqulov</b> Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish	75
<b>Фарангис Азамовна Ишанкулова</b> Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-математик модели	81
<b>Севара Абдиназаровна Бабаназарова</b> Таълим хизматлари тушунчаси ва уларнинг инсон ресурсларини шакллантиришдаги роли ва аҳамияти	87
<b>Shohina Xujmaxmatovna Pirova</b> Mamlakatimiz iqtisodiyotida ichimlik suvi ta'minoti xizmatlarining tutgan o'rni va ahamiyati	91
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева</b> Цифровой реинжиниринг бизнес-процессов в сервисных компаниях Узбекистана	95
<b>Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova</b> Ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini baholash tizimi va innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	99
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Елена Вячеславовна Гольшева</b> Индикаторы устойчивого туризма как инструмент регионального развития (на примере Ферганской области)	102
<b>To'liqin Saidahmedovich Sharipov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova</b> Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	110
<b>Azizjon Shukrilloevich Berdimurodov</b> Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslari	114
<b>Shuxratjon Sultonovich Sayfutdinov</b> Turizmni barqaror rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlari	118
<b>Dostonbek Furqat o'g'li Tilovmurodov</b> Surxondaryo viloyatida sarguzasht turizmi va speleoturizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	122
<b>Shohro' Baxtiyorovna Navruz-zoda</b> Yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari	128
<b>Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o'g'li Ismatillayev</b> Turizm va mehmondo'stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizimga uyg'unlashtirish masalalari	136
<b>Йылмаз Улви Узун</b> Влияние колебаний цен на нефть, глобальных торговых войн и прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны	139
<b>Askar Axrorovich Siddiqov</b> Mehmonxona korxonalarini boshqarish shakli va asosiy yondashuvlar	147
<b>Diyoira Farhod kizi Bahriddinova</b> Innovative directions for the development of youth-oriented tourism and economic mathematical models for assessing the service potential of tourism enterprises	150
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Шохида Ильясовна Артикова, Дониёр Искандарович Насимов</b> Поддержка и развитие малого бизнеса в сфере услуг в Республике Узбекистан: институциональные механизмы, динамика и перспективы	156

sustainable tourism development. *Tourism Management Perspectives*, 49, 102086.

3. World Tourism Organization (UNWTO). (2023). *Tourism and digital transformation: Unlocking blockchain opportunities for sustainability*. Madrid: UNWTO Publications.

4. Rahmonov, S. (2023). *Barqaror turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar roli*. Tashkent: Iqtisodiyot va Turizm Universiteti Nashriyoti.

5. Gursoy, D., & Chi, C. G. (2021). Sustainability in hospitality and tourism: Current trends and future directions. *International Journal of Hospitality Management*, 94, 102813.

6. Karimov, B. (2024). O‘zbekistonda turizmni raqamlashtirish jarayonlarining barqaror rivojlanishga ta’siri. *Tourism Studies Journal of Uzbekistan*, 7(2), 44–58.

7. Baggio, R., & Del Chiappa, G. (2020). Smart tourism networks and blockchain technology: Implications for sustainable value creation. *Annals of Tourism Research*, 84, 102992.

8. Li, Y., Zhang, H., & Huang, C. (2025). Blockchain applications in green tourism and carbon management. *Journal of Cleaner Production*, 454, 142579.

9. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Blockchain for Sustainable Development Goals: Practical insights and global practices*. New York: UNDP Press.

<b>Ш.Сайфутдинов</b>	<b>Sh.Sayfutdinov</b>
<b>Иновационные возможности блокчейн-технологий в развитии устойчивого туризма</b>	<b>Innovative opportunities of blockchain technologies in developing sustainable tourism</b>
<p><b>Аннотация.</b> В статье анализируются механизмы применения блокчейн-технологий в сфере туризма, их роль в обеспечении прозрачности, безопасности и надежности. По результатам исследования система обмена данными на основе блокчейна позволяет снизить реальные риски в цепочке туристических услуг, рационально использовать ресурсы и укрепить экологическую устойчивость. При этом разрабатываются рекомендации по формированию автоматизированных механизмов управления туристическими услугами на основе технологии “умных контрактов”.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> устойчивый туризм, туристическая сфера, туристические услуги, блокчейн-технология, цифровая трансформация, смарт-контракт, экологическая устойчивость.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article analyzes the mechanisms of application of block chain technologies in the tourism sector, their role in ensuring transparency, security and reliability. According to the results of the study, a blockchain based data exchange system allows reducing real risks in the tourism service chain, rational use of resources and strengthening environmental sustainability. At the same time, recommendations are developed on the formation of automated mechanisms for managing tourism services through “smart contract” technology.</p> <p><b>Keywords:</b> sustainable tourism, tourism sector, tourism services, block chain technology, digital transformation, smart contract, environmental sustainability.</p>

**Dostonbek Furqat o‘g‘li Tilovmurodov** – Alfraganus Universiteti, Xalqaro turizm menejmenti kafedrası katta o‘qituvchisi. Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

### **SURXONDARYO VILOYATIDA SARGUZASHT TURIZMI VA SPELEOTURIZM FAOLIYATINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida speleoturizm va sarguzasht turizmi faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarida Surxondaryo viloyatida speleoturizm va sarguzasht turizmi klasterlarini shakllantirish, hududiy brendingni rivojlantirish va xalqaro turistik oqimni jalb qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Speleoturizm, sarguzasht turizmi, Surxondaryo viloyati, turizm klasteri, barqaror rivojlanish, turistik salohiyat, turistik destinatsiyalar.

**Kirish.** So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizmning yangi turlarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risi” dagi 18-sentabr 2024-yildagi 582-sonli qarori bunga misol bo‘la oladi<sup>1</sup>. An‘anaviy madaniy va tarixiy turizm bilan bir qatorda, ekstremal va sarguzasht turizmi turlari, xususan speleoturizm, hiking, trekking, paraplan va boshqa faoliyatlar turistlarning qiziqishlarini orttirmoqda. Surxondaryo viloyati o‘zining noyob tabiiy geografik sharoitlari, Boysun tog‘ tizmalari, Sherobod va Sariosiyo hududidagi g‘orlar, tog‘ daryolari va qo‘riqxonalar bilan sarguzasht turizmi uchun katta imkoniyatlarga ega.

Speleoturizm g‘orlarni o‘rganish, ularning tabiiy tuzilishi, geologik va ekologik xususiyatlari bilan tanishish asosida tashkil etiladigan turizm turi bo‘lib, turistlarga ilmiy, estetik va ekstremal tajriba taqdim etadi. Sarguzasht turizmi esa kengroq tushuncha bo‘lib, tog‘larda trekking va hiking, paraplan va skydiving, rafting va boshqa ekstremal faoliyatlarni qamrab oladi [1,2]. Mazkur turizm turlarining Surxondaryo viloyatida rivojlantirilishi nafaqat turistik xizmatlar diversifikatsiyasini ta‘minlaydi, balki hududiy iqtisodiy o‘shishning muhim omiliga ham aylanadi. Speleoturizm va sarguzasht turizmi rivojlanishining quyidagi iqtisodiy ahamiyati mavjud:

- turistik oqim ortishi natijasida mahalliy byudjet daromadlari, xususan, xizmat ko‘rsatish sohasi, transport va joylashtirish vositalaridan tushadigan mablag‘lar ko‘payadi;
- sarguzasht turizmi klasterlari shakllantirilishi orqali xususiy sektor, xalqaro tashkilotlar va davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiyalar hududga jalb etiladi;
- turistik infratuzilma rivojlanishi natijasida gidlik, mehmonxona va kemping xizmatlari, transport va qo‘shimcha servislar orqali yangi ish o‘rinlari paydo bo‘ladi;
- Surxondaryo viloyati ekstremal va speleoturizmi yo‘nalishlari bilan tanilgan brend sifatida xalqaro bozorga chiqishi mumkin, bu esa eksport qilinadigan turistik xizmatlar hajmini oshiradi.

Biroq mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi yetarli darajada emas. Hududlarda turistik destinatsiyalarning ilmiy va turistik jihatdan to‘liq o‘rganilmagani, marketing strategiyalarining sustligi speleoturizm va sarguzasht turizmi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois mazkur mavzuni ilmiy jihatdan tahlil qilish [3,4], Surxondaryo viloyatida speleoturizm va sarguzasht turizmini barqaror rivojlantirish va xalqaro miqyosda targ‘ib qilish dolzarb hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** So‘nggi o‘n yilliklarda speleoturizm va sarguzasht turizmiga oid ilmiy adabiyotlar ikki asosiy yo‘nalishda rivojlandi:

(1) barqaror boshqaruv va geomeroslarni muhofaza qilish (sustainable show cave management).

(2) iqtisodiy-ta‘sir va bozor tendensiyalari (adventure tourism market & economic impact).

Xalqaro tadqiqotlar ko‘p hollarda speleoturizmni geoturizm va yer osti merosi sifatida ko‘rib, uning ekologik, arxeologik va ilmiy ahamiyatini himoya qilishni ta‘kidlaydi; shuningdek, amaliy tadbirlar (show-cave management, ziyorat marshrutlari, muhofaza chorasi) bo‘yicha xalqaro qo‘llanmalar ishlab chiqilgan. Xususan:

Speleoturizm o‘ziga xos xatarlar va muhofaza talabiga ega: mikroklima o‘zgarishi, biologik xilma-xillikka zarar yetishi, arxeologik qatlamlarning shikastlanishi mumkin. Shu bois, so‘nggi tadqiqotlarda speleologlar va geoturizm mutaxassislari tomonidan g‘orlarni tijoratlashtirishda sustainable show cave tamoyillari (ziyoratchi limiti, mikroklimatik monitoring, zaxira zonalar va ekologik ta‘lim) muhim deb topilgan. Bu yondashuvlar g‘orlarning uzoq muddatli saqlanishi va mahalliy jamoalarning manfaatdorligini ta‘minlashga xizmat qiladi [5].

Sarguzasht turizmi global bozorida barqaror o‘shish kuzatilmoqda; sektorda ishtirokchilarning yuqori xarajat hajmi va tajriba izlash xohishi iqtisodiy foydani oshiradi. Shu bilan birga, adventure turizm lokal hududlarda ish o‘rinlari va xizmat ko‘rsatish sektorini rivojlantirish orqali sezilarli darajada daromad keltirishi mumkin. Bu yondashuvlarni amalga oshirish uchun xavfsizlik me‘yorlari, sertifikatlash va trening tizimi zarur. Yevropa va Markaziy Osiyo misollarida speleoturizm va sarguzasht turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun g‘orlarning ilmiy kartalashishi, ziyoratchi boshqaruvi, mahalliy xizmatlarni rivojlantirish va

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.09.2024 yildagi 582-son - <https://lex.uz/uz/docs/-7114983>

xalqaro marketing zarurligi ko‘rsatildi (Serbiya, Polsha, Slovakiya kabi o‘rganilgan holatlar) [6,7]. Ushbu holatlar Surxondaryo viloyati kontekstiga mos keluvchi boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqishda foydali bo‘lishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

**Speleo va sarguzasht turizmini rivojlantirishning ilmiy asoslari<sup>1</sup>**

№	Muallif (Yil) / Manba	Tadqiqot yo‘nalishi	Tadqiqot metodlari	Xulosalar	Hududlar uchun turistik ahamiyati
1.	V. Chiarini et al. (2022). Sustainable Show Cave Tourism (PMC).	Show-cave boshqaruvi va barqaror tamoyillar	Adabiyotlar ni tahlil, qo‘llanmalar sintezi	G‘orlarni tijoratlashtirishda mikroklima monitoringi, ziyoratchi limiti, ekologik ta‘lim zarur.	G‘orlarini ochishda barqaror boshqaruv modelining asosiy komponentlari.
2.	V. Čech et al. (2021). MDPI Speleotourism potential (Slovakia).	Show-cave potential bahosi va tashrif analizi	SYh talab tahlili, monitoring	Potensial bahosi Speleoturizm bilan integratsiya qilinsa, ishtirokchi soni va daromad oshishi mumkin.	G‘orlarni marketing va boshqaruv orqali jozibador qilish metodologiyasi.
3.	Adventure Travel Development Index (2018). ATDI report.	Global adventure tourism bozor tendensiyalari	Indekslash, bozor tahlili	Sarguzasht turizmini iqtisodiy jihatdan barqaror segment; investitsiya uchun istiqbolli tuzim yo‘nalishi.	Sarguzasht turizmi brendi va investitsiya modelini yaratishning ilmiy asoslari.
4.	E.A. Tsurikhin (2014). Dark Star of Baisun-tau (Oxford summary).	Janubiy O‘zbekiston karst va g‘or kashfiyotlari	Speleologik ekspeditsiyalar, kashfiyotlar	Hududlarda chuqur va ilmiy qiziqish uyg‘otuvchi g‘orlar mavjud; ular ilmiy va paleoklimatik tadqiqotlar uchun muhim.	Hududlarda speleologik salohiyat va turizmning boshqa turlari bilan integratsiyasi.
5.	Z.O. Eshniyoz (2023). Speleotourism in Boysun District, Uzbekistan (IJINS).	Mahalliy speleoturizm imkoniyatlari (Boysun)	Hududiy inventarizatsiya, tavsif, tavsiyalar	Mahalliy g‘orlar, ekspeditsiya va sport yo‘nalishlari uchun mos; infratuzilmaga ehtiyoj.	Speleo va sarguzasht turizmi sharoitiga mos tavsiyalar va jamoa ishtiroki.

**Manba:** Xorijiy Adabiyotlar tahlili natijasida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston speleologik tadqiqotlarda XIX-XXI asrlarda izlanishlar mavjud Boysun-tog‘ va janubiy hududlarida chuqur g‘orlar va yangi topilmalar qayd etilgan. Shu bilan birga, Surxondaryo viloyati haqida ilmiy tadqiqotlar nisbatan cheklangan bo‘lib, mavjud ilmiy tadqiqot ishlarida g‘orlar kashfiyoti, speleologik ekspeditsiyalar va hududiy imkoniyatlarning umumiy tavsifi berilgan, ammo turizmga integratsiya (iqtisodiy model, xavfsizlik standartlari, mahalliy ijtimoiy ta‘sir) bo‘yicha ilmiy tahlillar mavjud emas. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, speleoturizm va sarguzasht turizmi rivojlanishida tabiiy obyektlarning jozibadorligiga emas, balki barqaror boshqaruv, mahalliy jamoalarning ishtiroki, xavfsizlik standartlari va sifatli xizmat, hududlarning turistik infratuzilmasiga bog‘liq.

<sup>1</sup> Xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili asosida muallif ishlanmasi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyatida speleoturizm va sarguzasht turizmini rivojlantirish imkoniyatlarini baholash jarayonida tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, hududning tabiiy-geografik salohiyatini aniqlash uchun SPSS asosida mavjud g‘orlar, tog‘ tizmalari, suv manbalari hamda potensial sarguzasht turizmi obyektlari xaritalashtirildi. Bu usul hududiy resurslarning fazoviy joylashuvi, turistik sig‘imi va infratuzilma bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida turizm klasterlarini shakllantirish imkoniyatlarini baholash maqsadida M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan klaster nazariyasi konseptual asos sifatida qo‘llanildi. Bu yondashuv orqali speleoturizm va sarguzasht turizmining boshqa turizm turlari, transport-logistika tizimi, mehmonxona xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sektori va mahalliy hamjamiyat bilan o‘zaro integratsiyasi o‘rganildi. Natijada hududiy turizmning samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan tarmoqlararo bog‘liqlik darajasi aniqlashtirildi [8].

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot doirasida Surxondaryo viloyatida sarguzasht va speleoturizm faoliyatlari bo‘yicha o‘tkazilgan SPSS tahlillari natijalari bir qator muhim ilmiy xulosalar qilindi. Birinchidan, deskriptiv statistika ko‘rsatkichlariga ko‘ra, respondentlarning baholari orasida eng yuqori (higher score) o‘rtacha ko‘rsatkich hiking ( $M=4.3$ ), kemping ( $M=4.2$ ) va speleoturizm ( $M=4.1$ ) faoliyatlariga to‘g‘ri keldi. Bu esa hududda tabiiy landshaftlarga asoslangan turizmning ushbu shakllariga talab yuqori ekanidan dalolat beradi. Shu bilan birga, paraplan va water rafting kabi ekstremal turizm faoliyatlari ham yetarlicha yuqori baholangan, ammo ularning o‘rtacha qiymatlari (average score) nisbatan pastroq ko‘rsatkichlarda qayd etildi (2-jadval).

2-jadval

**Aktiv turizm faoliyatlari o‘rtasidagi korrelatsion ko‘rsatkichlar<sup>1</sup>**

<b>Correlation Bivariate, Pearson test</b>	Speleoturizm	Paraplan	Water Rafting	Hiking	Kemping	Trekking	Fox Flying	Horse Riding
Speleoturizm	1.00	0.48	0.41	0.55	0.65	0.58	0.39	0.71
Paraplan	0.48	1.00	0.69	0.52	0.47	0.50	0.74	0.42
Water Rafting	0.41	0.69	1.00	0.61	0.44	0.56	0.70	0.40
Hiking	0.55	0.52	0.61	1.00	0.73	0.72	0.58	0.50
Kemping	0.65	0.47	0.44	0.73	1.00	0.76	0.53	0.60
Trekking	0.58	0.50	0.56	0.72	0.76	1.00	0.55	0.57
Fox Flying	0.39	0.74	0.70	0.58	0.53	0.55	1.00	0.46
Horse Riding	0.71	0.42	0.40	0.50	0.60	0.57	0.46	1.00

**Manba:** So‘rovnoma asosida ekonometrik tahlil natijasi.


Korrelyatsiya tahlili natijalari aktiv turizm faoliyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniq ko‘rsatdi. Jumladan, kemping va trekking ( $r=0.76$ ) hamda hiking va kemping ( $r=0.73$ ) o‘rtasida eng yuqori ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Bu esa ochiq havoda tashkil etiladigan faoliyatlarning o‘zaro qo‘shimcha xizmat sifatida rivojlantirilishi samarali bo‘lishini ko‘rsatadi. Ekstremal va sarguzasht turizmi faoliyatlar orasida paraplan va fox flying ( $r=0.74$ ) hamda rafting va fox flying ( $r=0.70$ ) o‘rtasida kuchli korrelyatsiya mavjudligi aniqlanib, ularning yagona klaster sifatida rivojlantirilishi mumkinligi ta‘kidlandi. Speleoturizm va horse riding o‘rtasida ham yuqori bog‘liqlik ( $r=0.71$ ) mavjud bo‘lib, bu faoliyatlar hududning tarixiy-madaniy va ekzotik turizm imkoniyatlari bilan uyg‘unlashishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Klaster tahlillari natijasida turizm faoliyatlari uchta asosiy guruhga ajratildi: birinchi klasterga hiking, trekking va kemping kabi turizm shakllari, ikkinchi klasterga paraplan, fox

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

flying va rafting kabi ekstremal turizm shakllari, uchinchi klasterga esa speleoturizm va horse riding kabi aktiv faoliyatlar kiritildi. Faktor tahlili ham ushbu natijalarni tasdiqlab, turizmning integratsiyalashgan shakllarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi.

Tahlili natijalariga ko‘ra, Boysun tog‘lari hududida hiking, trekking va speleoturizm obyektlarini, Sherobod tumanida esa paraplan va fox flying faoliyatlarini rivojlantirish eng maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Sariosiyo tumanida rafting faoliyati, Denov tumanida esa horse riding va ekoturizm shakllarini tashkil etish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Aktiv turizm faoliyati o‘rtasidagi korrelatsion klateri<sup>1</sup>

Manba: So‘rovnomasida ekonometrik tahlil natijasi.

O‘tkazilgan tahlillar Surxondaryo viloyati sarguzasht turizmining rivojlanish istiqbollari va hududiy resurslarning optimal taqsimlanishini ilmiy asosda ko‘rsatib berdi. Avvalo, respondentlarning yuqori baholari ekoturizm shakllariga qaratilgan bo‘lib, bu hududning boy tabiiy landshaftlari va ekologik resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ekstremal turizm shakllari ham yetarli darajada qiziqish uyg‘otgan, ammo ularni xavfsizlik talablari, infratuzilma va xizmat ko‘rsatish darajasi bilan ta‘minlash masalasi muhim hisoblanadi. Korrelyatsiya tahlili natijalari turizm faoliyatlari o‘rtasidagi komplementarlikni yaqqol ko‘rsatib berdi. Masalan, hiking va trekkingning kamping bilan yuqori darajadagi bog‘liqligi ularni kompleks turistik paketlar sifatida taklif etish imkoniyatini ochib beradi. Ekstremal faoliyatlar orasidagi kuchli bog‘liqlik esa adrenal turizmini rivojlantirish uchun marketing klasterlarini shakllantirish zarurligini taqozo etadi. Shuningdek, speleoturizmning horse riding bilan o‘zaro bog‘liqligi Surxondaryoning milliy madaniyati va tarixiy merosini zamonaviy turizm shakllari bilan integratsiya qilish mumkinligini ko‘rsatadi.

Klaster tahlili asosida ajratilgan guruhlar hududiy turizmni boshqarishda strategik yo‘nalishlarni belgilashga yordam beradi. Bu guruhlashish asosida har bir tuman yoki turistik zona o‘ziga moslashtirilgan ixtisoslashgan turizm xizmatlarini rivojlantirishi mumkin. Tahlili natijalari esa amaliyotda turizmni hududiy rejalashtirish, turistlar oqimini to‘g‘ri taqsimlash va infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha aniq qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, SPSS statistik tahlillari va natijalari Surxondaryo viloyatida speleoturizm va sarguzasht turizmini rivojlantirishning yuqori potensialga ega ekanini ko‘rsatmoqda. Biroq bu imkoniyatlarni samarali amalga oshirish uchun turizm infratuzilmasini takomillashtirish, xavfsizlik choralarini kuchaytirish, mahalliy aholi ishtirokini oshirish va xalqaro marketing strategiyalarini joriy etish zarur. Shuningdek, ilmiy tahlillarga asoslangan integratsion yondashuv hududiy turizm siyosatini yanada barqaror va innovatsion shaklda rivojlantirish imkonini beradi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida speleoturizm va sarguzasht turizmining rivojlanishi uchun sezilarli hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat mavjudligini ko‘rsatdi. SPSS statistik tahlillari asosida aniqlandiki, hududdagi turistlarning talab va afzalliklari asosan aktiv turizm shakllariga yo‘naltirilgan bo‘lib, hiking, kemping, trekking kabi faoliyatlar eng yuqori baholangan yo‘nalishlar sifatida ajralib chiqdi. Shu bilan birga, paraplan, fox flying va rafting faoliyatlarining o‘zaro yuqori bog‘liqligi ularning integratsiyalashgan turistik klaster sifatida rivojlantirilishiga imkon beradi. Speleoturizmning horse riding bilan uyg‘unligi esa tarixiy-madaniy merosni zamonaviy sarguzasht turizmi bilan birlashtirish imkoniyatini ochadi. Bundan tashqari, tahlillari natijasida aniqlangan hududiy joylashuv xususiyatlari turizm faoliyatini samarali rejalashtirish va turistlar oqimini optimal boshqarishga zamin yaratadi. Surxondaryo viloyatida speleoturizm va sarguzasht turizmi faoliyatlarini rivojlantirish bir tomondan hududning tabiiy, tarixiy va madaniy resurslaridan samarali foydalanish imkonini bersa, ikkinchi tomondan mahalliy aholini ish bilan ta‘minlash, hududiy iqtisodiyotga qo‘shimcha daromad keltirish va xalqaro turistik raqobatda O‘zbekistonning mavqei mustahkamlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ilmiy asoslangan klasterlash, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, marketing strategiyalarini kuchaytirish va barqarorlik tamoyillariga rioya etish zarurdir. Ushbu turizm turlarini jivojlantirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- hiking, trekking va kempingni o‘z ichiga olgan turizm klasteri, paraplan, fox flying va raftingni qamrab olgan ekstremal turizm klasteri, speleoturizm va horse ridingni birlashtirgan madaniy-ekzotik turizm klasterini Surxondaryo viloyatining turli hududlarida shakllantirish maqsadga muvofiqdir;

- tog‘li hududlarda xavfsiz piyoda yo‘laklari, paraplan maydonlari, rafting start nuqtalari va kemping zonalarini zamonaviy infratuzilma bilan ta‘minlash, turistlar uchun qulay transport va axborot xizmatlarini yaratish zarur;

- speleoturizm va horse riding faoliyatlarini rivojlantirishda mahalliy aholining xizmat ko‘rsatish, gidlik, transport va milliy mahsulotlar bilan ta‘minlashdagi rolini kengaytirish, shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash mumkin;

- sarguzasht turizmi faoliyatida xavfsizlik talablarini yuqori darajada ta‘minlash, ekologik resurslardan foydalanishda barqarorlik tamoyillariga amal qilish va turizm jarayonlarining tabiatga salbiy ta‘sirini minimallashtirish zarur;

- Surxondaryo viloyatini xalqaro miqyosda sarguzasht turizmi markazi sifatida targ‘ib etish, speleoturizm obyektlari va ekstremal sport zonalarini turistik brend sifatida shakllantirish, internet marketing va raqamli platformalardan faol foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (2022). The main indicators of the development of tourism and accommodation in Uzbekistan (Press release, 2022). State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics.

2. Abdukhakimov, E. (2022). Statistics on tourist spending and development trends in Uzbekistan (News report).

3. ResearchGate. (2023). O‘zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari: Surxondaryo viloyati misolida (risola / maqola).

4. Foundation for the Preservation and Exploration of Caves. (2024). Speleological expedition to the deepest caves of Asia — Boysun-Tau, Uzbekistan (2024 expedition announcement).

5. Central Asia Adventures. (2023/2024). Speleo tours — caves of Uzbekistan and Central Asia (tour/operator web page).

6. Uzbekistan — Travel and tourism: country commercial guide (sectoral report).

7. Suyunova, D. (2025). The development of adventure tourism in Uzbekistan (peer / scholarly article).

8. Zayniiddinova, F.(2025). Tog‘li hududlarda ekstremal turizm va speleoturizm: Boysun va Surxondaryo misoli (ilmiy maqola).

<p><b>Д.Тиломуродов</b></p> <p><b>Возможности организации приключенческого туризма и спелеотуризма в Сурхандарьинской области</b></p>	<p><b>D.Tilovmurodov</b></p> <p><b>Opportunities for organizing adventure tourism and speleotourism activities in Surkhandarya region</b></p>
<p><b>Аннотация.</b> В статье научно проанализированы возможности развития спелеотуризма и приключенческого туризма в Сурхандарьинской области. По результатам исследования разработаны предложения по формированию кластеров спелеотуризма и приключенческого туризма в Сурхандарьинской области, развитию регионального брендинга и привлечению международных туристских потоков.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> спелеотуризм, приключенческий туризм, Сурхандарьинская область, туристический кластер, устойчивое развитие, туристский потенциал, туристские дестинации.</p>	<p><b>Abstract.</b> This article scientifically analyzes the opportunities for developing speleotourism and adventure tourism in Surkhandarya region. The results of the study have developed proposals for the formation of speleotourism and adventure tourism clusters in Surkhandarya region, the development of regional branding, and the attraction of international tourist flows.</p> <p><b>Keywords:</b> speleotourism, adventure tourism, Surkhandarya region, tourism cluster, sustainable development, tourist potential, tourist destinations.</p>

**Shohro‘ Baxtiyorovna Navruz-zoda** - Buxoro davlat universiteti doktoranti

### YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

<p><b>Annotatsiya.</b> Ushbu maqolada yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari, ularning nazariy-metodologik, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, madaniy-ma’naviy hamda axborot-kommunikatsion jihatlarini tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — “Turizm – Yoshlar turizmi – Yoshlar” tushunchalarining o‘zaro integratsiyasi orqali yoshlar turizmining ilmiy-nazariy asosini ishlab chiqishdir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar turizmini rivojlantirishda davlat siyosati, raqamli kommunikatsiyalar, innovatsion marketing strategiyalari va ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash zarurligi ta’kidlanadi. Maqola yakunida yoshlar turizmini barqaror rivojlantirish uchun konseptual model va integratsion yondashuvning nazariy asoslari taklif etiladi.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> yoshlar turizmi, turizm konsepsiyasi, integratsiya, barqaror rivojlanish, madaniy meros, innovatsion yondashuv, raqamli kommunikatsiya.</p>
--

**Kirish.** Yoshlar turizmini rivojlantirishning kontseptual asoslari yosh sayohatchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, ya’ni, ularning byudjetga qulay, moslashuvchan va mustaqil sayohatni afzal ko‘rishi va texnologik taraqqiyot tufayli sayohat qilishning global o‘rishini tushunishga asoslanadi. Muhim asoslar orasida ommabop madaniyat va sarguzashtlar orqali noyob tajribalarni taklif etuvchi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish, barqaror amaliyotlarni rivojlantirish, mahalliy hamjamiyat va yoshlar tashkilotlari kabi manfaatdor tomonlarni jalb qilish, marketing va ma’lumot almashish uchun raqamli platformalardan foydalanish kiradi.

Yoshlar turizmini rivojlantirishda konseptual yondashuv yoshlarning noyob manfaatlari, ehtiyojlari va afzalliklarini o‘rganish va tushunishga qaratilgan. Yoshlarning ehtiyojlari va tanlovlariga e’tibor qaratish ushbu maqsadli auditoriya uchun aniqroq va jozibador takliflarni yaratishga imkon beradi. Yoshlar turizmini rivojlantirish modeli sayyohlik sohasidagi yoshlar tajribasini kuchaytirish uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullarni birlashtirishi mumkin. Bu mobil ilovalar, virtual reallik, shaxsiy yondoshuvlar va boshqalarni foydalanishga jalb qilinishi mumkin. Yoshlar turizm sohasida ijtimoiy-madaniy aloqalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Yoshlar turizm sohasida ijtimoiy-madaniy aloqalarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunga madaniyatlararo almashinuvni rag‘batlantirish, mahalliy urf-odatlar va madaniyatni hurmat qilish, shuningdek, ular tashrif buyuradigan joylarda ijtimoiy va jamoat tashabbuslarida yoshlarni jalb qilish kiradi. Yoshlar turizmini rivojlantirish modeli barqaror va ekologik jihatlariga urg‘u beradi. Bu atrof-muhitga mas’uliyatli xatti-harakatlarni rivojlantirish, tabiatni muhofaza qilish loyihalarida ishtirok etish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Konseptual yondashuv yoshlarni

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.